



## O‘ZBEKISTONNING IKKINCHI JAHON URUSHIDAGI ROLI

*Xursanova Shohsanam Salohiddinovna*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*Iqtisodiyot fakulteti 1-kurs*

*shohsanamsalohiddinovna0808@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda O‘zbekistonning Ikkinchi jahon urushidagi roli yoritilgan. Urush yillarida minglab o‘zbekistonliklar frontga safarbar qilinib, mardona kurashdi va respublika front ehtiyojlari uchun paxta hamda boshqa mahsulotlarni yetkazdi. Bu davr odamlar hayotiga katta ta’sir ko‘rsatdi va xalqimizning jasorati hamda mehnati urush xotirasida saqlanib qoldi.

**Kalit so‘zlar:** Ikkinchi jahon urushi, front orti, O‘zbekiston, evakuatsiya, safarbarlik, demografik yo‘qotishlar, tarixiy xotira.

**O‘zbekistonning urush yillaridagi harbiy va iqtisodiy hissasi.** Ikkinchi jahon urushi XX asr tarixidagi eng yirik va fojeali voqealardan biri bo‘lib, u jahon siyosiy xaritasini tubdan o‘zgartirdi. 1941-yil 22-iyunda fashistlar Germaniyasining Sovet Ittifoqiga hujumi bilan urush yangi, yanada keskin bosqichga o‘tdi. Ushbu tarixiy sinov davrida O‘zbekiston Sovet Ittifoqining muhim strategik hududi sifatida front ortidagi tayanch bazalardan biriga aylandi. Urush O‘zbekiston hayotining barcha sohalariga —iqtisodiyot, ijtimoiy hayot, demografiya, fan va madaniyatga chuqur ta’sir ko‘rsatdi. Respublikada millionlab insonlar hayoti tubdan o‘zgardi, kundalik mehnat front ehtiyojlariga bo‘ysundirildi. Shu bois O‘zbekistonning Ikkinchi jahon urushi yillaridagi o‘rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan yoritish dolzarb masala hisoblanadi. Urush boshlanishi bilan O‘zbekistondan keng ko‘lamli safarbarlik amalga oshirildi. 1941–1945-yillarda respublikadan 1,5 milliondan ortiq kishi Qizil Armiya safiga chaqirildi. Bu o‘sha davrdagi aholi soniga nisbatan juda



katta ko‘rsatkich edi. O‘zbekistonlik jangchilar Moskva va Leningrad mudofaasi, Stalingrad jangi, Kursk yoyidagi hal qiluvchi to‘qnashuvlar, shuningdek, Sharqiy Yevropa va Berlinni ozod qilish operatsiyalarida faol qatnashdilar. Ular piyoda qo‘shinlar, tank qismlari, aviatsiya va artilleriya bo‘linmalarida mardonavor jang qildilar. 1941 yil arafasida O‘zbekiston aholisi 6,8 million kishidan ortiq edi. Urush boshlanganidan beri 2 millionga yaqin vatandoshimiz frontga ketgan, shundan 500 mingdan ortig‘i jang maydonlarida halok bo‘lgan. 200 mingdan ortiq askar va ofiser harbiy orden va medallar bilan taqdirlandi. 301 nafar vatandoshimiz Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni, 70 nafardan ortig‘i uchinchi darajali “Shon-sharaf” ordeni bilan taqdirlangan. Bu jasorat namunalari xalqning vatanparvarlik ruhini ifodalaydi.

**O‘zbekiston-front ortidagi strategik tayanch.** SSSR XKSning 1941-yil 26-iyun hamda 1942-yil 13-apreldagi qarorlari asosida ishchilar va xizmatchilarga qo‘shimcha ish vaqtiga ruxsat berilib, ta‘tillar bekor qilindi. Shuningdek, agar kolxozchi bir yil davomida belgilangan majburiy ishni bajarmasa, shaxsiy tomorqadan foydalanish huquqidan mahrum qilingan. Hattoki maktab o‘quvchilari ham majburiy mehnatga tortiladi. Dala ishlari deyarli qo‘l mehnati bilan bajarilib, kunlik norma 7–8 soat qilib belgilangan. Chunki qishloq xo‘jaligidagi deyarli barcha texnikalar front ehtiyoji uchun yo‘naltirilgan edi. Shu sababdan shahar va qishloq o‘quvchilari ham paxta dalalariga olib chiqiladi. 1941/1942-yil o‘quv yilida maktablardagi o‘quvchilar soni 1 194 084 kishi bo‘lib, sovet hokimiyati bulardan tayyor ishchi kuchi sifatida foydalanishga harakat qilgan.

“Stalin haqiqati” gazetasining 1942-yilgi sonida “Sen frontga qanday yordam berayotirsan” nomli maqola nashr etilgan. Unda “*Sen agar frontga astoydil yordam berishni istasang, 2–3 kishini ishini bajar. Kuniga 120–150 kg paxta ter. Paxtani mudofaa xomashyosi ekanini yaxshi bilasan*” mazmundagi targ‘ibot ishlari kuchayib, paxta siyosat darajasiga ko‘tarilgan. Bir kilo paxtani yo‘qotish – og‘ir jinoyat deb topilib, hattoki har bir gektar yeridan o‘rta hisob qancha paxta isrof bo‘lishi hisoblab chiqilgan.



Hisobotlarda o‘qishdan ajralmasdan paxta terishda ishtirok etdilar, deyilsa-da, aslida ko‘pgina maktablarda o‘quvchilar darsga borishmagan. Shu sababdan ham 1942/43-o‘quv yilining oxiriga kelib respublikaga umumta’lim o‘quv rejasi atigi 77 foizga bajarilgan, 247,6 ming maktab yoshidagi bolalar o‘qitilmay qolgan. Qori Niyoziyning ma’lumot berishicha, 1944-yil iyulda katta qishloqlarda, qishloq yoshlari uchun kechki maktablar tashkil qilingan. Urush yillarida vujudga kelgan bu maktablar urush vaqti sharoitida yoshlarning ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o‘qishi maqsad qilingan edi. Biroq ushbu maktablarda o‘qituvchilar, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari yetishmagan.

### **O‘zbekiston Ikkinchi jahon urushidan keyin: tarixiy xotira va siyosiy**

**yondashuvlar.** Sovet davrida Ikkinchi jahon urushi asosan “Ulug‘ Vatan urushi” deb nomlanib, uni Sovet xalqlarining fashizm ustidan qozongan buyuk g‘alabasi sifatida targ‘ib qilindi. O‘zbekiston ham bu mafkura doirasida urushda fidoyilik ko‘rsatgan xalq sifatida e’tirof etildi. G‘alaba kuni – 9-may respublikada tantanali ravishda nishonlanib, urush faxriylariga hurmat ko‘rsatildi. Biroq Sovet tarixiy yondashuvi O‘zbekiston va boshqa ittifoq respublikalarining urushdagi yo‘qotishlari, majburiy safarbarlik hamda urushdan keyingi iqtisodiy qiyinchiliklar masalasini chetlab o‘tgan edi. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, urush haqidagi yondashuv o‘zgardi. 1999-yilda Toshkentda “G‘alaba bog‘i” va “Motamsaro ona” yodgorligi ochildi. Bu monument urush qurbonlarini eslash va ularning xotirasini abadiylashtirish maqsadida bunyod etildi. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston urushda halok bo‘lgan o‘zbek askarlari xotirasiga ko‘proq e’tibor qaratib, ularning ismlarini tarixiy hujjatlar orqali tiklashga harakat qildi. Sovet davrida urush faxriylari alohida e’tirof etilgan bo‘lsa, mustaqillikdan so‘ng

9- may “Xotira va qadrlash kuni” deb nomlanib, urush qatnashchilari va front ortidagi mehnatkashlarning xizmatlarini yodga olishga yo‘naltirildi. Bu kun endilikda faqat harbiy g‘alabani emas, balki urush qurbonlari va halok



bo'lganlarning oilalarini xotirlash kuni sifatida nishonlanadi. Toshkent va boshqa shaharlarida turli yodgorliklar tiklanib, urush qatnashchilarining hayoti va fidoyiligi haqida tadqiqotlar olib borilmoqda. O'zbekiston mustaqillikdan so'ng, urushning ta'siri va natijalari bo'yicha yangicha tarixiy yondashuvlarni shakllantirdi. Endi urush nafaqat Sovet xalqlarining g'alabasi sifatida, balki xalqimiz boshdan kechirgan fojialar, yo'qotishlar va majburiy mehnatga safarbar qilingan millionlab o'zbekistonliklarning taqdiri nuqtayi nazaridan ham o'rganilmoqda. Shuningdek, urush davrida O'zbekistonning Sovet iqtisodiy tizimida majburiy ravishda ishlatilgani, resurslarning Moskva talablariga bo'ysundirilgani haqida ham ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu esa O'zbekistonning urush yillaridagi roli va yo'qotishlarini yanada chuqurroq anglash imkonini bermoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda urush xotirasi ikki asosiy nuqtai nazardan baholanadi. Bir tomondan, o'zbekistonliklarning jasorati va fidoyiligi qadrlanadi, boshqa tomondan, urushning xalqimizga yetkazgan mislsiz zararlarini anglash va mustaqil tarixiy tahlil qilishga e'tibor qaratilmoqda. Bu esa kelajak avlodlar uchun urush saboqlarini to'g'ri anglash va tarixiy xotirani adolatli baholash imkonini yaratmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish mumkinki, Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston nafaqat frontga askarlar yuborish orqali, balki iqtisodiy va mehnat resurslari bilan ham muhim rol o'ynadi. Urush sharoitida minglab o'zbekistonliklar frontga safarbar qilindi, paxta va boshqa mahsulotlar front ehtiyojlariga yo'naltirildi, ishchi va o'quvchi kuchi majburiy mehnatga jalb qilindi. Shu davr odamlarning hayot tarzini tubdan o'zgartirdi, iqtisodiyot va ta'lim sohalariga katta bosim keltirdi. Urush yillarida xalqimizning jasorati, fidoyiligi va mehnati O'zbekistonning strategik ahamiyatini ko'rsatdi. Mustaqillik davrida bu tarix nafaqat g'alaba, balki urushning insonlarga, iqtisodiyotga va jamiyatga etkazgan zararlarini ham anglash imkonini beradi. Shu bilan O'zbekistonning Ikkinchi jahon urushidagi o'rni va ahamiyati yanada ravshan bo'ladi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Hayit B. Turkiston — Ikkinchi jahon urushi yillarida. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – 256 b.
2. Ziyoyev H. Ikkinchi jahon urushi va o‘zbeklar // O‘zbekiston tarixi. – 2015. – №3. – B. 45–52.
3. Xolboev M. Ikkinchi Jahon Urushi yillarida O‘zbekistonda arxivlar faoliyati (Namangan viloyati misolida) // Arxivshunoslik jurnali. – 2020. – №2(14). – B. 110–117.
4. Abdinazarova Sh.Q. Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonda xalq maorif tizimining ahvoli // Xalq ta’limi. – 2021. – №4(89). – B. 35–42.
5. Shukhratovna A. S. Organization of the Process of Independent Work of Students in the Credit-modular System of Education //European Journal of Humanities and Educational Advancements. – T. 4. – №. 1. – C. 65-68.
6. Akbarov R.M. Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbek milliy matbuotida sog‘liqni saqlash masalasi // Tarix va madaniyat tadqiqotlari. – 2022. – №1. – B. 78–85.